
«BESH TASHABBUS – BESH IMKONIYAT!»

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni amalga oshirish maqsadida Toshloq tumanidagi 17-umumiy oʻrta taʼlim maktabida «Besh tashabbus – besh imkoniyat!» shiori ostida maʼnaviy-maʼrifiy tadbir boʻlib oʻtdi.

Unda Respublika ishchi guruhi aʼzolari, Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayev, sektor rahbarlari, Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi vakillari, oʻqituvchilar va oʻquvchilar hamda ularning ota-onalari ishtirok etdilar.

Tadbirda oʻquvchilarning tabiatga boʻlgan mehrini oshirish maqsadida "Gullar va qushlar" bayrami, 5-11-sinf qizlari oʻrtasida "Balli qizlar" koʻrik-tanlovi, 9-11-sinf yigitlari oʻrtasida "Osh tayyorlash" koʻrik-tanlovlari oʻtkazildi.

Tadbirda soʻz olgan tuman hokimi mamlakatimizda yosh avlodni maʼnaviy barkamol inson etib tarbiyalash, boʻsh vaqtini mazmunli oʻtkazishni tashkil etish, ularning sanʼat, sport, axborot texnologiyalari, kitob oʻqishga qiziqishini oshirish boʻyicha beshta muhim tashabbus doirasida keng koʻlamli ishlar amalga oshirilayotganini taʼkidlab oʻtdi.

Shundan soʻng, "Prokuror sovrini" uchun oʻtkazilgan viloyat bosqichida faxrli oʻrinni egallagan gʻoliblar faxriy yorliq hamda esdalik sovgʻalar bilan taqdirlandi.

Tadbir davomida "Maʼrifat ulashib" shiori ostida Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan aktyor va aktrisalar Gulchehra Nosirova, Feruza Sobitova, Ahror Qoʻshmatovlar bilan uchrashuv boʻlib oʻtdi. Bir soʻz bilan aytganda maktabda oʻtkazilgan qiziqarli koʻrik-tanlovlar hamda mashhur insonlar bilan boʻlib oʻtgan samimiy uchrashuvlar yoshlarda katta taassurotlar qoldirdi.

2024-05-14 18:54:15